

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



11 768



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

5 776



Oilaviy korxonona

150



Unitar korxonona

7 885



Xususiy korxonona

24



Aksiyadorlik jamiyati

352



Boshqa korxonalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida 4 324 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 354 ta, xususiy korxonalar – 776 ta, oilaviy korxonalar – 1 025 ta, muassasalar – 82 ta va boshqalar – 87 tani tashkil etdi.



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 5 776 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 843 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 372 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 848 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 025 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 511 taga yoki 3,4 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 11 768 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 580 taga yoki 128,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 313 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 414 taga yoki 127,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 354 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 652 taga yoki 1,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.








Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 556 tani tashkil etib, ulardan 539 tasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 145 taga yoki 136,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 132 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>4 380</b>	<b>5 565</b>	<b>7 280</b>	<b>8 899</b>	<b>11 313</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	351	612	750	1 152	1 625
Sanoat	710	883	1 185	1 403	1 794
Qurilish	726	934	1 323	1 499	1 794
Savdo	1 367	1 641	2 196	2 775	3 609
Tashish va saqlash	478	517	579	622	648
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	176	207	281	343	417
Axborot va aloqa	72	78	97	108	139
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	35	64	88	101	154
Boshqa turlar	465	629	718	896	1 133

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>60</b>	<b>139</b>	<b>307</b>	<b>394</b>	<b>539</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9	36	82	99	120
Sanoat	34	48	80	109	136
Qurilish	1	9	17	21	38
Savdo	6	25	84	118	184
Tashish va saqlash	4	7	7	7	9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	2	14	17	22
Axborot va aloqa	1	1	2	2	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	3	4	7
Boshqa turlar	4	10	17	17	22

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	539	146	393
Termiz sh.	293	34	259
tumanlar:			
Oltinsoy	8	6	2
Angor	21	5	16
Bandixon	1	-	1
Boysun	8	6	2
Muzrabot	13	6	7
Denov	17	8	9
Jarqo'rg'on	17	10	7
Qumqo'rg'on	11	5	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	19	10	9
Termiz	50	20	30
Uzun	37	19	18
Sherobod	19	9	10
Sho'rchi	15	7	8

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,4 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (8,1 %), Sho'rchi (6,8 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,1 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,8 %), Boysun (4,7 %), Muzrabot (4,6 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (1,9 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2021-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (20,4 %), Denov (11,1 %), Sherobod (7,8 %), Jarqo'rg'on (7,7 %), Sho'rchi (7,2 %), Qumqo'rg'on (6,4 %), Termiz (5,4 %), Uzun (5,4 %), Sariosiyo (5,1 %), Angor (4,9 %), Muzrabot (4,4 %), Qiziriq (4,3 %), Boysun (4,2 %), Bandixon (3,4 %) va Oltinsoy (2,3 %) ulushiga ega.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,4 %), Denov (9,3 %), Termiz (9,1 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Sherobod (6,3 %), Boysun (5,3 %), Sho'rchi (5,2 %), Qumqo'rg'on (5,1 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosiyo (4,1 %), Uzun (3,4 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (2,1 %) ulushiga ega.






2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2021- yil yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (12,4 %), Termiz sh. (11,2 %), Uzun (10,2 %), Sariosiyo (9,8 %), Jarqo'rg'on (7,7 %), Sherobod (7,3 %), Qumqo'rg'on (6,3 %), Sho'rchi (5,4 %), Angor (5,2 %), Muzrabot (5,2 %), Qiziriq (4,3 %), Bandixon (4,2 %), Boysun (4,1 %), Oltinsoy (3,4 %) va Termiz (3,3 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.



The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header, there is a navigation menu with options like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar is located on the right side of the header.

The main content area is divided into three columns. The left column, titled 'RASMIY STATISTIKA', lists various statistical categories such as 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The middle column contains a form for entering STIR codes, with a dropdown menu open showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonona pasporti'. The right column, titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR', lists useful information such as 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sahoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**